# Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

*2022-yilning yanvar-mart oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 125,5 %ni tashkil etdi.*

*2022-yilning yanvar-mart oylarida 2 750,2 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 70,0 %i yoki 1 925,7 mlrd. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 30,0 % yoki 824,5 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.*

*Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o‘tgan yilning mos 1,5 % punktga kamaydi, 3,6 %ni yoki 97,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

*Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 652,4 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 96,4 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko‘paydi.*

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan investitsiyalar
97,8
mlrd. so‘m

2 750,2
mlrd. so‘m
o‘sish sur‘ati
125,5 %

Markazlashmagan investitsiyalar
2 652,4
mlrd. so‘m

O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar
49,7
mlrd. so‘m

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar
1 646,8
mlrd. so‘m

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya
609,8
mlrd. so‘m

| Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,o‘sish sur’ati %da |
|---|---|---|
| 0,5 | Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 60,3 |
| 1,3 | Respublika budjeti | 96,5 |
| 0 | Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 0,0 |
| 1,8 | O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar | 194,9 |

| Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, o‘sish sur’ati %da |
|---|---|---|
| 12,8 | Korxona mablag‘i va mahaliy budjeti | 110,2 |
| 17,2 | Aholi mablag‘lari | 122,9 |
| 35,9 | Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar | 207,0 |
| 8,3 | Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz | 43,0 |
| 22,2 | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | 173,0 |

*2022-yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari va mahaliy budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 352,2 so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,8 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,2 %i yoki 472,3 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.*

*To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 609,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 % punktga ko‘payib, 22,2 %ni tashkil etdi.*

### ***Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd. so‘m***

| | |
|---|---|
| 34,5 | *Respublika budjeti* |
| 13,6 | *Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi* |
| 0 | *Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi* |
| 49,7 | *O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar* |
| 352,2 | *Korxona mablag‘lari* |
| 230,8 | *Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari* |
| 609,8 | *To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar* |
| 987,4 | *Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar* |
| 472,3 | *Aholi mablag‘lari* |

Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 230,8 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,4 %ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,7 % punktga kamaydi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 49,7 mlrd. so‘m (1,8 % va 0,7 % punktiga ko‘paydi),boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 987,4 mlrd. so‘m (35,9 % va 14,1 % punktga ko‘paydi),Respublika budjeti 34,5 mlrd. so‘m (1,3 % va 0,3 % punktga kamaydi), Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 13,6 mlrd. so‘m (0,5 % va 0,5 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

*Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlarini moliyalastirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich kafolatlanmagan kreditlarda kuzatilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 197,2 %ga o‘sdi. Bunday yuqori o‘sishga Qo‘shtepa tumanida joylashgan “GLOBAL TEXTILE INFINITY” MCHJ - to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, hamda Toshloq tumanida joylashgan “New World Gazoil” MCHJ tomonidan neft va gaz kondensatlarini qayta ishlashni tashkil etish loyihalari doirasida o‘zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo‘ldi.*

*Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 173,0 %ni tashkil etib, “Farg‘ona Yasin Qurilish Mollari” MCHJ QK va "MODERNA CEMENT INDUSTRIES" MChJ QK tomonidan Sement ishlab chiqarishni tashkil etish va “Posco International Textile” MCHJ XK tomonidan paxtachilik klasterini tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o‘zlashtirilgani bilan bog‘liq.*

## Moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

| | Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m | shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo’yicha (jamiga n | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Respublika budjeti | Korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari | Aholining o‘z mablag‘lari | Xorijiy investitsiya va kreditlar | Suv ta’minoti kanalizatsiy tizimlarini rivojlantiris jamg‘armas |
| Farg‘ona viloyati: | 2750,2 | 1,3 | 12,8 | 17,2 | 59,9 | 0,5 |
| shaharlar: | | | | | | |
| Farg‘ona sh. | 533,6 | 3,1 | 26,1 | 12,5 | 34,8 | 1,3 |
| Qo‘qon sh. | 254,3 | 0,1 | 14,1 | 63,3 | 7,6 | 0 |
| Quvasoy sh. | 156,8 | 0 | 49,9 | 7,7 | 37,7 | 0 |
| Marg‘ilon sh. | 136,7 | 0 | 26,2 | 8,4 | 58,7 | 0 |
| Tumanlar: | | | | | | |
| Oltiariq | 95,8 | 0 | 0,1 | 0,7 | 99,1 | 0,1 |
| Qo‘shtepa | 214,9 | 0 | 0,2 | 0,3 | 99,5 | 0 |
| Bag‘dod | 99,0 | 0 | 0 | 0,5 | 95,4 | 0,6 |
| Buvayda | 46,6 | 0 | 8,4 | 48 | 38,9 | 0 |
| Beshariq | 115,1 | 0,1 | 0 | 0,1 | 99,6 | 0 |
| Quva | 78,5 | 0 | 23,2 | 28,9 | 42 | 0 |
| Uchko‘prik | 173,8 | 0 | 8,9 | 11,3 | 71,9 | 0 |
| Rishton | 106,2 | 0 | 0 | 0,1 | 95,5 | 1,6 |
| So‘x | 25,8 | 23,8 | 30,7 | 33 | 2,3 | 0 |
| Toshloq | 241,4 | 0,9 | 0 | 15,8 | 83,2 | 0 |
| O‘zbekiston | 176,0 | 1,5 | 0 | 26,6 | 69,6 | 2,2 |
| Farg‘ona t | 111,8 | 5,3 | 9,7 | 6,6 | 55,7 | 0,6 |
| Dang‘ara | 87,3 | 0 | 0 | 4,7 | 94,9 | 0 |
| Furqat | 46,5 | 0,3 | 12,8 | 34,1 | 49,3 | 0 |
| Yozyovon | 50,2 | 0,2 | 0 | 66,9 | 30,4 | 0 |

*Shahar va tumanlar tamonidan taqsimlanmagan ma’lumotlarni qo‘shgan holda

## 2022-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

| | o‘sish sur’ati | investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | Farg‘ona viloyatidagi ulushi |
|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 107,1 % | 533,6 | 19,4 % |
| Qo‘qon shahar | 102,8 % | 254,3 | 9,2 % |
| Quvasoy shahar | 102,1 | 156,8 | 5,7 % |
| Marg‘ilon shahar | 104,1 % | 136,7 | 5,0 % |
| Oltiariq tumani | 134,4 % | 95,8 | 3,5 % |
| Qo‘shtepa tumani | 269,1 % | 214,9 | 7,8 % |
| Bag‘dod tumani | 134,7 % | 99,0 | 3,6 % |

| Tuman | o'sish sur'ati | investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm | Farg'ona viloyatidagi ulushi |
|---|---|---|---|
| Buvayda tumani | 101,1 % | 46,6 | 1,7 % |
| Beshariq tumani | 187,4 % | 115,1 | 4,2 % |
| Quva tumani | 102,1 % | 78,5 | 2,9 % |
| Uchko'prik tumani | 103,6 % | 173,8 | 6,3 % |
| Rishton tumani | 210,4 % | 106,2 | 3,9 % |
| So'x tumani | 102,6 % | 25,8 | 0,9 % |
| Toshloq tumani | 169,8 % | 241,4 | 8,8 % |

## O‘zbekiston tumani

| Farg‘ona viloyatidagi ulushi | investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 6,4 % | 176,0 | 165,6 % |

## Farg‘ona tumani

| o‘sish sur’ati | investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | Farg‘ona viloyatidagi ulushi |
|---|---|---|
| 104,1 % | 111,8 | 4,1 % |

## Dang‘ara tumani

| Farg‘ona viloyatidagi ulushi | investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 3,2 % | 87,3 | 141,9 % |

## Furqat tumani

| o‘sish sur’ati | investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | Farg‘ona viloyatidagi ulushi |
|---|---|---|
| 100,1 % | 46,5 | 1,7 % |

## Yozyovon tumani

| Farg‘ona viloyatidagi ulushi | investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 1,8 % | 50,2 | 111,7 % |

***2022-yil yanvar-mart oylarida investitsiyalarning o‘sish sur’atlari, %da***




*Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati 269,1 %ga o‘sib, Qo‘shtepa tumanida kuzatildi. Bu asosan “GLOBAL TEXTILE INFINITY” MCHJ - to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish.*

*Shuningdek, Rishton tumanida ham yuqori o‘sish sur’ati kuzatilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 210,4 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "RUSO'ZBEKTEKS" MChJ Xorijiy Korxonada tomonidan sochiq va gazlama ishlab chiqarishni tashkil etish bilan izohlash mumkin.*

*Viloyatda investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ulushga ega bo’lgan Farg‘ona shahri (19,4 %), Qo‘qon shahri (9,2 %),hamda Toshloq tumani (8,8 %) ushbu tuman va shaharlarda o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmi o‘sish sur’atining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.*

## *Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, ( %da)*

**43,9**
**Mashina, uskuna, inventar**

**48,1**
**Qurilish-montaj ishlari**

**8,0**
**Boshqa xarajatlar**

*Farg‘ona viloyati bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 1 322,4 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 48,1 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo‘yicha 1 208,0 mlrd. so‘m (jami investitsiyalardagi ulushi 43,9 %) va boshqa xarajatlarga 219,8 mlrd. so‘m (8,0 %) o‘zlashtirildi.*

---

*Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qo‘shtepa tumanida kuzatildi – 98,3 % yoki 211,3 mlrd. so‘m.*

*Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng quyi daraja Furqat tumanida kuzatilib, 85,0 %ni yoki 39,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, Toshloq tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich kuzatilib – 81,2 % yoki 196,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

### *Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi % da)*

*Yangi qurilish- 73,7*

*Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya - 14,6*

*Boshqa yo‘nalishlar -11,7*

*Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo‘naltirildi. Yangi qurilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2 025,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 73,7 %ini tashkil etdi.*

*Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar 402,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 14,6 %ini tashkil etdi. Qolgan 11,7 %, ya’ni 322,5 mlrd. so‘m boshqa xarajatlarga yo‘naltirildi.*

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi**

*Jami hajmdagi ulushi % da*

| | | Qurilish montaj ishlari | Mashina, uskuna, inventarlar | Boshqa xarajatlar |
|---|---|---|---|---|
|  | **Farg‘ona viloyati** | 43,9 | 48,1 | 8,0 |
| | shaharlar: | | | |
|  | **Farg‘ona** | 42,4 | 53,5 | 4,1 |
|  | **Qo‘qon** | 55,2 | 44,0 | 0,8 |
|  | **Quvasoy** | 18,9 | 77,6 | 3,5 |
|  | **Marg‘ilon** | 20,8 | 29,2 | 50,0 |

| | tumanlar: | | | |
|---|---|---|---|---|
|  | ***Oltiariq*** | *44,0* | *49,0* | *7,0* |
|  | ***Qo‘shtepa*** | *98,3* | *0,4* | *1,3* |
|  | ***Bag‘dod*** | *46,9* | *35,9* | *17,2* |
|  | ***Buvayda*** | *60,3* | *32,7* | *7,0* |
|  | ***Beshariq*** | *13,8* | *79,3* | *6,9* |
|  | ***Quva*** | *27,8* | *61,3* | *10,9* |
|  | ***Uchko‘prik*** | *58,0* | *38,6* | *3,4* |
|  | ***Rishton*** | *50,5* | *44,5* | *4,9* |
|  | ***So‘x*** | *82,4* | *9,1* | *8,6* |
|  | ***Toshloq*** | *15,9* | *81,2* | *2,9* |
|  | ***O‘zbekiston*** | *24,2* | *70,7* | *5,1* |
|  | ***Farg‘ona*** | *68,4* | *26,4* | *5,2* |
|  | ***Dang‘ara*** | *16,3* | *56,8* | *26,9* |
|  | ***Furqat*** | *85,0* | *8,1* | *6,9* |
|  | ***Yozyovon*** | *61,9* | *10,4* | *27,6* |

*Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan*

*2 155,6 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 78,4 %i o‘zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:*

*- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish –*

*301,1 mlrd. so‘m (10,9 %);*

*- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 602,1 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 21,9 %).*

*- koks va qayta ishlangan neft mahsulotlarini ishlab chiqarish – 190,5 mlrd. so‘m (6,9 %).*

*Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi jami 284,5 mlrd.so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 10,3 %i o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning tarkibidan 10,3 %i yoki 283,7 mlrd. so‘mi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohasiga tegishlidir.*






## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibida katta ulushga ega sohalar

(jamiga nisbatan %da)



*2022-yil yanvar-mart oylarida 1646,8 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,9 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.*

*Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 652,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 994,6 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.*

## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so‘m

| | Jami | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | O‘z.R kafolati ostida xorijiy kreditlar | Boshqa investitsiya va kafolatlan-magan kreditlar |
| **Farg‘ona viloyati** | **1646,8** | **609,8** | **49,7** | **987,3** |
| Farg‘ona sh. | 185,7 | 80,6 | 47,1 | 58,0 |
| Qo‘qon sh. | 19,1 | 0,0 | | 19,1 |
| Quvasoy sh. | 59,2 | 22,6 | | 36,6 |
| Marg‘ilon sh. | 80,3 | 0,0 | | 80,3 |
| Oltiariq t. | 94,9 | 32,9 | | 62,0 |
| Qo‘shtepa t. | 213,8 | 0,0 | | 213,8 |
| Bag‘dod t. | 94,5 | 21,9 | 1,2 | 71,4 |
| Buvayda t. | 18,1 | 0,0 | | 18,1 |
| Beshariq t. | 114,6 | 114,6 | | 0,0 |
| Quva t. | 33,0 | 15,9 | | 17,1 |
| Uchko‘prik t. | 125,0 | 79,1 | 0,1 | 45,8 |
| Rishton t. | 101,5 | 45,6 | 0,1 | 55,8 |
| So‘x t. | 0,6 | 0,1 | | 0,5 |
| Toshloq t. | 200,8 | 18,6 | | 182,2 |
| O‘zbekiston t. | 122,5 | 67,7 | | 54,8 |
| Farg‘ona t. | 62,2 | 55,5 | 0,0 | 6,7 |
| Dang‘ara t. | 82,8 | 21,9 | 0,1 | 60,8 |
| Furqat t. | 22,9 | 21,8 | 1,1 | 0,0 |
| Yozyovon t. | 15,3 | 11,0 | | 4,3 |

*To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1 597,2 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 49,7 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.*

*Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 191,1 %ni tashkil etdi.*

## *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da*

**0,8 %**
***Elektr, gaz bilan ta’minlash***

**0**
***Tog‘-kon sanoati***

**83,9 %**
***Qayta ishlash sanoati***

**0,6 %**
***Axborot va aloqa***

**10,0 %**
***Qishloq xo‘jaligi***

**0,2 %**
***Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya***

**4,0%**
***Ulgurji va chakana savdo***

**0**
***Tashish va saqlash***

**0,2 %**
***Sog‘liqni saqlash***

**0,3%**
***Ta’lim***

## Foydalanishga topshirilgan turar-joylar tarkibi % da

ming kv.m

**348,6**

95,6 %

*Qishloq joylar ulushi 94,0 %*

*Yakka tadbirkor uy-joy qurilishi*

4,4 %

*Qishloq joylar ulushi 100 %da*

*Qishloq qurilish invest*

## Foydalanishga topshirilgan ijtimoiy soha obyektlari tarkibi %da

| *Shahar joylarda* | | *Qishloq joylarda* |
|---|---|---|
| 3,1 | *Suv tarmog‘i* | 96,9 |
| 0,0 | *Gaz tarmog‘i* | 100,0 |

Joriy davrda jami umumiy maydoni 348,6 ming kv.m bo‘lgan 5373 ta turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ulardan umumiy maydoni 257,0 ming kv.m bo‘lgan 1098 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.Umumiy maydoni 333,3 ming kv.m bo‘lgan 1489 ta turar-joy obyektlari yakka tartibdagi yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ulardan umumiy maydoni 226,4 ming kv.m bo‘lgan 1087 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan. Umumiy maydoni 15,3 ming kv.m bo‘lgan 11 ta turar-joy obyektlari Qishloq qurilish invest yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ulardan umumiy maydoni 15,3 ming kv.m bo‘lgan 11 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.

Viloyat bo‘yicha 32,3 km suv va 4,4 km gaz tarmog‘i ishga tushirilgan bo‘lib, ulardan 31,0 km suv va 4,4 km gaz tarmog‘i qishloq joylarga to‘g‘ri keladi.

Suv 2,8 mlrd. so‘m va gaz 0,7 mlrd. so‘m tarmog‘lari qurilishi bo‘yicha, investitsiyalar foydalanilgan.



***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi***

Aloqa telefoni: ***(73) 241-98-42***
***249-87-26***